

*Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)*

Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>

## SEMA MARASHLI “QULOQ OSHIQ BO‘LARKAN KO‘ZDAN AVVAL” ASARIDA YIGIT VA QIZ MUNOSABATLARI TAHLILI

**Bobur Yangiboy o‘g‘li Hakimov**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

### ANNOTATSIYA

Bu kitob yosh oilalar, voyaga yetgan yigit qizlar va hozirda o‘z baxtli oilasi bilan barchaga o‘rnak insonlarga bag‘ishlanadi. Inson ko‘pincha o‘zi ichida o‘sgan go‘zallikni his qilmaydi, sezmaydi, ko‘rmaydi. Odatda har qanday go‘zallik hatto chiroyli bo‘lmagan narsalar ham ro‘paradan qaralganda, yana-da yaxshiroq ko‘rinadi. Ko‘zgu bo‘lmasa, o‘z yuzimizni ko‘ra olmaganimiz singari harakatlarimizni ko‘ra olishimiz uchun ham birov bizga ko‘zgu bo‘lishi kerak. Erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan fikrlarim to‘plangan bu kitob ham balki kimgadir ushbu vazifani o‘tar, ya‘ni ko‘zgu vazifasini... Har bir narsaning o‘z ilmi bo‘lganidek, sevgining xam, sevishtning ham o‘z ilmi bor. Ushbu kitob Siz, azizlarga, sevgi daryosidan oqib kelgan bir tomchi sifatida yuraklaringizga yetib borishiga tilakdoshman. Deb yozadi kitob muallifi Sema Marshli.

**Kalit so‘zlar:** Sevgi, muhabbat, nafrat, tushinish, hurmat qilish, birga yaxshash, shirin so‘z.

### KIRISH:

Oila deb [qon-qarindoshlik](#), [qarindoshchilik](#) (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat [ijtimoiy guruhdir](#). Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchunasosiy [institut](#) vazifasini o‘taydi.

[Antropologlar](#) oilalarni [matrilokal](#) (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, [nuklear oila](#) deyilad) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi. Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a‘zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma‘naviy mas‘uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a‘zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta‘sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

### ASOSIY QISM:

*Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)*  
*Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>*

“Quloq oshiq bo‘larkan ko‘zdan avval” bu asar haqida maqola yozar ekanmiz birinchidan bir narsaga etibor qaratishimiz kerak. Kitobimiz nima uchun bu shakilda “Quloq oshiq bo‘larkan ko‘zdan avval” tarzida nomlangan va bu gapda qanchalik haqiqat, qanchalik hikmat bor. Kitob nomini eshitishimiz bilanoq bir jumla esimizga tushib ketadi: qizlar qulog‘i bilan sevadi yigitlar esa oshqozoni bilan degan halqimizni orasida gaplar yuradi. Bu kitob ham huddi qiz va yigit munosabatlari haqida gaprilgan,er va hotin mojarolari erga qanaqa muomilada bo‘lish kerak xotinga qanday muomilada bo‘lish kerakligi haqida ko‘pgina tavsiyalar berilgan. Buvi va nabira suhbatiga guvoh bo‘lamiz va bazida eridan shikoyat bazida esha eriga ersh tuyiladigan gaplarni aytmalik hullas buvi nevarasiga tavsiyalar beradi. Bu kitobdagi o‘zinga yoqqan joylarini tagiga chizib o‘qiganman hozir bularni sizga ham ulashaman.Buvining nevarasiga tavsiyalari deb nomladim!

-Men sevgi deganda sevgilim bilan soatlab suhbatlashib,kulishib o‘tirishni tushinaman.

-Suhbatlashish, kulishish ham yaxshi, lekin bu bilan bo‘lmaydi. Sevgi quloqda boshlanib, quloqda tugaydi,shuni unutma.Quloqdan kirgan har bir so‘z yurakka etib boradi.

- Barcha erkaklar qahramon bo‘lishni istaydi. Erkak uchun kuch va mavqe juda muhim turadi. Hech qachon erkak bilan kuch sinasha ko‘rma.

-Ayiblash ham mumkin emas. Erkaklar ayblanganda o‘zlarini yetarli emasdek his qilishadi.

-Aslo unga buyruq ohsngda gapirma. Erkaklar bundan nafratlanadilar

- Ko‘z ham muhim, qizim. Ayol kishining o‘ziga qarashi juda muhi, ammo quloqdan keying o‘rinda turadi. Qanchadan -qancha go‘zal ayollarga ulardan xunukroq ayollar bilan xiyonat qilishadi, sira ko‘rganmisan? Chunki o‘sha ayol erkak qulog‘iga nima deb shivirlashni biladigan ayoldir.

-Erkaklar ayollarning baland ovozda gapirishlarini yomon ko‘radi va nafratlanadi.

-Siz sira urshmaganmisiz? Janjalsiz uy bo‘lmaydi. Jahlim chiqqan vaqtda men ham gapiraman,lekin ovozimni ko‘tarmayman.

-Erkaklarning jahli to‘fonga o‘xshaydi, birdan keladi va o‘tib ketadi. O‘zingni to‘fonga urib berma, aks holda yakson bo‘lasan.

-Muhabbat otash kabidir, shirinim. Orada fayz berib,o‘t qalab turmasang, birdan so‘nib qoladi,

*Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)*

*Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>*

-Iltifot: ayollar uchun non-suv kabi zarur narsa degandi bir do'stim. Sevgi quloqdan boshlanib quloqda tugaydi.

-Sevgi oson, qizim,-dedi buva.-Muhimi, uzoq yillar bu sevgini yashnatadigan, sevgisini har doim his qiladigan turmush o'rtog'ining bo'lishidir.Zavjam mening bu dunyoda jannatim. U mening yozdagi quyoshim, qishda esa ko'nglim o'chog'i. Buvalar nabiralariga nasihatlar bersa menimcha hozrda yosh oilar bir birini tushinishmay, turmush qiyinchiliklariga chiday olishmasdan erta turmushlari buzilib ketix holatlari juda ko'p kuzatilmasmidi.

### **XULOSA**

Bu asardan xulosa chiqarishimiz kerakki ayolni ham erni ham oilada o'z o'rinlari bor erkak kuni bilan ishdan charchab kelsay-u ayoli shirin so'zlar bilan emas qo'pol so'zlar bilan kutib olsa uni charchog' undan battar ortadi va sekin sekin uydan beziy boshlanadi. Er uyga kech keladigan ayoliga etibor bermaydigan, uydan olmagan mehrni tashqaridan izlaydigan bo'ladi.Buva aytgan gaplar nevarasiga ozroq yoqmasada lekin bularni barchasi hayotdan olingan tajribalar edi.Agar buvisi aytganini qilsa albatta turmshi yaxshilanishini bilar edi.

### **FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1-Sema Marshli ,“ Quloq oshiq bo'larkan ko'zdan avva " 2021- yil
- 2-Zu.wikipedia.org
- 3-Ziyonet.uz
- 4-WWW.uz